



THE ROLE AND IMPORTANCE OF MUSICAL LITERACY IN TEACHING NATIONAL INSTRUMENTS TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Munira J. Yusupova

Student

Termez State University

Termez, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: classical music, Buzruk, Rost maqom, instrument and song, “mental attack”, “chain”, “step by step”.

Received: 14.05.22

Accepted: 16.06.22

Published: 18.06.22

Abstract: This article discusses national musical instruments and how to teach them to primary school students. The study of the Uzbek musical heritage and its transmission to the next generation at a decent level has long been a criterion of the performing tradition in the form of “teacher-student”. The article also discusses the role and importance of music literacy.

MILLIY CHOLG‘U ASBOBLARINI BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA O‘RGATISHDA MUSIQA SAVODXONLIKNI O‘RNI VA AHAMIYATI

Munira J. Yusupova

Talaba

Termiz davlat universiteti

Termiz, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit So‘zlar: mumtoz musiqa, Buzruk, Rost maqom, cholg‘u va ashula, “aqliy hujum”, “zanjir”, “zinama-zina”.

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy cholg‘u asboblari va ularni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘rgatish haqida so‘z yuritiladi. O‘zbek musiqa merosini o‘rganish va uni munosib darajada kelajak avlodga yetkazish azal-azaldan ijrochilik an‘analarining “ustozdan-shogirdga” qabilida amalga oshirib kelinayotgan mezonidir. Shuningdek maqolada musiqa savodxonligining o‘rni va ahamiyati kabi masalalar ko‘rib chiqiladi.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ МУЗЫКАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ В ОБУЧЕНИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НАЦИОНАЛЬНЫМ ИНСТРУМЕНТАМ

Мунира Дж. Юсупова

студент

Термезский государственный университет

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: классическая музыка, бузрук, рост-маком, инструмент и песня, «мысленная атака», «цепь», «шаг за шагом».

Аннотация: В данной статье рассматриваются национальные музыкальные инструменты и способы обучения на них учащихся начальных классов. Изучение узбекского музыкального наследия и его передача следующему поколению на достойном уровне издавна является критерием исполнительской традиции учитель-ученик. В статье также рассматривается роль и значение музыкальной грамотности.

KIRISH

“Ustoz-shogird” an’anasi asosidagi an’anaviy musiqa sabog’ini ta’lim tizimida qaror topishi zamonaviy ta’limning eng ahamiyatli bosqichlaridan hisoblanadi. Buni uzluksiz ta’lim tizimi doirasida shakllantirish, hamda uni har bir bosqich talablari asosida tartiblash avvalo bilimli mutaxassis tayyorlashning zamini, qolaversa barkamol avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek mumtoz musiqa merosi ko‘p ma’noli monumental asarlarni o‘zida mujassam etgan. Ularning munosib va go‘zal talqinlari mumtoz va zamonaviy ustoz sozandalar tomonidan ijro etilib kelinmoqda. Ustoz-shogird ta’lim uslubining muhim qirralaridan biri ana shu ijrochilikda yuzaga kelgan “individual”, ya’ni shaxsiy ijro talqinini tinglab o‘zlashtirish ekanligini e’tirof etish joizdir. Lekin, dutor ijrosida bu mezon o‘zgacha jihatlar bilan ajralib turadi. Shu bois bo‘lsa kerak, dutor ijrosida yangrayotgan asarni har bir sozanda o‘zgacha jilo bilan o‘ziga xos ijro etishi bilan ajralib turadi. Ma’lumki, maqom cholg‘u va ashula yo‘llarini o‘zlashtirish jarayonida, asosan o‘tmish ustozlar meros qilib qoldirib ketgan nota yozuvlari, magnitofon tasma yozuvlari va gramplastinkalarga yozilgan ijrolarga murojaat qilib kelinadi. Hozirgi kunda musiqa merosiga asoslangan ijrochilik sohasini munosib rivojlantirishda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi an’anaviy ijrochilik kafedrasida professor o‘qituvchilari tomonidan diqqatga molik ishlar qilinmoqda. Milliy cholg‘ularimiz (tanbur, dutor, ud, rubob, g‘ijjak, nay, chang, qonun)ga, ya’ni har bir cholg‘u sozini ijro imkoniyatlari darajasiga qarab maqom kuylarini moslashtirilgan holda o‘quv_ustlubiy qo‘llanmalar yaratilib, nashr qilinmoqda. R.Qosimovning «Rubob navolari», «An’anaviy rubob ijrochiligi», «An’anaviy tanbur

ijrochiligi», Sh. Shoraxmetovning «Rubob taronalari», S. Azizboyevning «G'ijjak navolari», R.Samadovning «Doira zarblari», S.Begmatov va N.Qodirovlarning «Ansaml sinfi», S.Begmatov va M. Matyakubovning «An'anaviy xalq cholg'ulari», M. Ziyayevaning «F.Sodiqov hayoti va ijodi» kabi o'quv-uslubiy qo'llanmalari shular jumlasidandir. Qo'lingizdagi mazkur to'plam dutor sozi uchun moslashtirilgan maqom turkum asarlari asosida tuzilgan. Bunda asosan Buzruk va Rost maqomlarining cholg'u va ashula yo'llari, birinchi va ikkinchi guruh shu'balaridan turkum asarlar kiritilgan. To'plamdan o'rin olgan turkum asarlarni tuzishda dutor cholg'usida ijro etiladigan asarlarni talqin qilishdagi asosiy vazifalar maqsad qilib olingan. Ijrochilikda qo'llaniladigan turli xil zarblar, bezaklar, qochirim, nola, kashishlar imkon darajasida ko'rsatib berishga harakat qilindi. Asarni eshitib, so'ngra nota yozuvida aks ettirilgan yozuvlarga ahamiyat bergan holda ijro etilsa, talaba_sozandaga har tomonlama qulaylik yaratiladi. Albatta, har bir sozanda o'z imkoniyati, iste'dodi, bilimi orqali to'plamda ko'rsatilgan kuylarni ijodiy talqin qilishi, idroklagan darajasi, asarni tushunishiga qarab undagi zarblar va bezaklarni to'ldirishi mumkin. Chunki, maqom kuy va ashulalari, milliy ijrochiligimizning cheksiz izlanishlarga boy ijodiy jarayoni hisoblanadi.

ASOSIY QISM

An'anaviy cholg'u ijrochiligi qadimdan "Ustoz shogird" an'alariga tayanib kelgan. Bolalar musiqa va san'at maktablari litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida cholg'ularni o'rganish yakka tartibda amalga oshirilib, tasdiqlangan fan dasturlari asosida ta'lim berib kelinadi. Sababi, har bir o'quvchi yoki talaba qobiliyatiga, iqtidoriga qarab ularga alohida yondashish talab qilinadi. Bilim va ko'nikmalarni musiqa kollej-litseylarining an'anaviy cholg'u sinfida ta'lim olib, dastlabki ijrochilik malakalariga ega bo'lib keladilar. Mazkur qo'llanma ham oliy o'quv yurtlari talabalari uchun an'anaviy dutor cholg'usi bo'yicha tayyorlangan. An'anaviy dutor cholg'usi ijrochiligi orqali kelayotgan yosh avlodning ma'naviy olami va madaniy saviyasini yuksaltirish, zamon yoshlarning mumtoz musiqaning eng sara namunalaridan keng bahramand bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Musiqa san'atini, xususan an'anaviy ijrochilik san'atini yanada rivojlantirishga katta e'tibor qaratilganligi barchaga ma'lum. Mustaqillikka erishilgandan so'ng milliy musiqaga, xususan an'anaviy cholg'ularga bo'lgan qiziqish ko'paydi. An'anaviy dutor cholg'usi ijrochiligi kollej_litsey va oliy o'quv yurtlarida yildan yilga soni ko'payib bormoqda. O'zbekistonda musiqiy ta'lim ilg'or ta'lim tizimlaridan biriga aylanganligini guvohimiz. Ta'lim tizimini rivojlantirishda Vazirlar Mahkamasining qarorlari, chora-tadbirlari o'quv tizimida o'z aksini topmoqda. Ma'lumki, O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch" asarida – "...agar insonning qulog'i yengil-yelpi, tumtaroq ohanglarga o'rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi,

musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma'naviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Oxir – oqibatda bunday odam Shashmaqom singari milliy merosimizning noyob durdonalarini ham, Motsart, Betxoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo'ladi" deb yozganlar. Bundan xulosa shuki, mumtoz musiqamizning, maqomlarimiz tarixini, ijrosini o'z yurtimizda o'rganmasak, rivojlantirmasak ularni boshqa joyda rivojlantirib bo'lmaydi. Bu borada oliy o'quv yurti professor – o'qituvchilari tomonidan talabga javob beradigan darsliklar, o'quv uslubiy qo'llanmalar, dasturlar yaratilib kelinmoqda. Ta'lim tizimining barcha sohalarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanib kelinmoqda. O'tiladigan har bir darslarni innovatsion texnologiyalar yordamida tashkil qilish talabalarni mustaqil ravishda darslarga tayyorlanib kelishlarida "keys stadi" uslublari katta yordam bermoqda. Bunday uslublar "aqliy hujum", "zanjir", "zinama-zina", talabalarning bilim olishini shakllantirishda katta-ahamiyatga ega. Bilim, ko'nikmalar avvalambor talabani o'ziga bo'lgan ishonchini, erkin fikrlashini, o'z fikrini boshqalarga yetkaza olishini shakllantiradi. Kelajakda talablar o'z cholg'ularini mukammal ijro qilishlari balki ulardan yaxshi ustoz – murabbiy bo'lib yetishishida o'z samarasini beradi. Bunga javoban ta'lim beruvchi ustozlar doim izlanishda bo'lib, o'z ustida muntazam ishlab borishlari, va albatta malakalarini ham oshirib borishlari kerak bo'ladi.

Qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan — O'rta Osiyoda yashagan xalqlar jahon fani va madaniyati xazinasiga salmoqli hissa qo'shganlar. Ular musiqa madaniyati sohasida ham juda boy qadimiy merosga egadirlar. O'zbekiston hududida 12 keng tarqalgan cholg'ular xususida to'xtaladigan bo'lsak, shulardan biri dutordir. Uning juda qadimiylikidan darak beruvchi, Tuproq qal'a (miloddan avvalgi IV-III asrlar)dan topilgan ikki torli cholg'ularning keyinchalik dutor, dombra va qo'biz shaklida takomillashganligini ko'rsatadi. Bu cholg'ular tut yoki o'rik yog'ochidan yasaladi. Ular qovurg'ali o'yma dutor va o'yib ishlangan dutor bo'lgan. Qopqog'i esa tut yog'ochidan yupqa qilib ishlangan. Dutorlar tori sozlanishi bo'yicha kichik oktava "re" notasidan, katta oktava "sol" yoki "lya", ba'zan esa qo'shtor qilib ham sozlanadi. Bu cholg'u o'zbek an'anaviy musiqa ijrochiligida juda katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, u yakka tarzda, jo'rsozlikda, jo'rnovozlikda va ansambllarda o'z o'rniga ega. Og'ir kuylar yakka tarzda ijro qilinganda dutor shunday bir mungli va sehrlil ovozga egaki, insonni ruhini tinchlantiradi va ma'naviy oziqlantiradi. Agar, sho'xchan va tez quvnoq kuylar ijro qilinsa, tinglovchining qalbini quvontiradi va zavq bag'ishlaydi. Dutor cholg'usi boshqa cholg'ularimizga qaraganda zarblar jihatidan ham keng imkoniyatlarga ega. Shuning uchun ham xalq kuylari, maqomlarning qashqarcha, soqinoma, ufor kabi sho'xchan taronalari bu cholg'uda o'zgacha jarang topadi Jo'rnovozlikda "dutor" va "tanbur" cholg'ulari ijrosidagi kuylar bir biriga

hamohangdir. Xususan, bu cholg'ularda ijro qilinadigan kuylar yoki ashulalar misolida ko'rishimiz mumkin. Bu cholg'ular bir birini shunday to'ldiradiki, ulardan go'zal yangi bir ohang paydo bo'ladi. Dutor cholg'usining yana bir muhim jihati shundaki, bu sozda yakka ijro qilinganda o'ng qo'ldagi zarblarning "usul beruvchi" vazifasini bajarishi aksariyat hollarda doirasiz yakka ijro qilinishiga sabab bo'ladi. O'zbek an'anaviy musiqa ijrochiligida keng tarqalgan ijro amaliyotida tanbur, rubob, dator, g'ijjak, chang, nay, surnay, qonun, doira kabi har tomonlama takomillashgan cholg'u asboblari mavjud. Cholg'ularning takomillashuvi ularning ovozigina, ovoz diapazoniga, shakllariga ta'sir ko'rsatgan. Dutor cholg'usi manbalarda yozilishicha deyarli o'zgarmagan. Qadimda dator cholg'usi asosan ayollar tomonidan ijro qilingan va ijro amaliyotida keng ommalashgan. Shu bois bo'lsa kerak, dator sozining mayin va xonaki ovozga egaligi bizgacha o'zgarmasdan yetib kelgan.

XX-XXI asrlarga kelib, dator ijrochiligi professional darajada rivojlana boshladi. Bir qator mohir ijrochilar shakllandi. Dutorni go'zal sadolantirishning turli ko'rinishlari va uslublari paydo bo'ldi. Bu bir-biridan serjilo ijro uslublari o'ziga xosligi bilan tinglovchilar dilidan joy ola boshladi. Ularning uslublari qiziqqan yoshlar ham paydo bo'ldi, natijada ijrochilik maktablariga aylandi. Dutor ijrochilik uslublari haqida gapirar ekanmiz, biz Xorazm dator maktablari va o'ziga xos go'zal ijrochilik uslubini qayd etmasdan ilojimiz yo'q. Farg'ona-Toshkent vohasidagi ko'p ijro yo'llaridan — Qo'qon dator ijrochilik maktabining an'analari ham alohida ajralib turadi. Dutor ijrochiligining an'anaviy uslubda maxsus maqom yo'llari yaratilgan. Xorazm vohasida dator cholg'uchiligi ham o'ziga xos bo'lib, unda o'ng qo'l zarblari rez usulidagi uzluksiz davomiy ijrosi bilan ajralib turadi. Har bir kuchli hissani bo'rttirib, o'ng qo'lning to'rt barmog'i va jimjiloqni qopqoqqa tekkizib, tirnab va chertib ijro qilish asosiy xususiyatlardan hisoblanadi. Dutorning o'ng qo'l zarblari Xorazmda "dast" deyiladi. Ular o'z ichiga kuy va usul bo'laklarini murakkab va jozibali jihatlarini birlashtiradi. Keksa sozandalarning aytishiga qaraganda, doston nomalariga jo'r bo'luvchi doira ham usulni dator zarblaridan o'rgangan. Nomalarning kuy tuzilishi va tezkor rivojlanganligidan baxshilar datorning ijro imkoniyatlaridan to'liq foydalanganlar. Xorazm dator ijrochiligini takomillashuvida bir qator ustoz ijrochilarining katta hissalarini bor. Bulardan — Nurmuhammad Boltayevni alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Ustoz ijrosidagi — "Orazibon", "Qarinavo", "Aliqambar", "Qoradali", "Roviy", "Dilxiroj" kabi xalq kuylarida Xorazm ijro uslubini, ya'ni qopqoqqa urib, to'rt barmoqni birgalikda terib chalishlarni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Farg'ona-Toshkent dator ijrochiligida shaxsiy uslublari muhim ahamiyat kasb etgan. O'z ijrolari bilan musiqa ijrochiligi san'atiga salmoqli hissa qo'shgan zabardast ustozlar — Faxriddin

Sodiqov, Mahmud Yunusov, Orif Qosimov, Zokirjon Obidov, Komiljon Jabborov, Turg'in Alimatov kabilarning ijro yo'llari musiqa san'atimizda o'rnak uslublardir.

XULOSA

Musiqa ilmining tarixi juda qadim-qadimlargacha borib taqaladi. Lekin bizning eramizdan avvalgi musiqiy ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Faqat keyingi yillarda olimlarning qidiruvlari natijasida yer ostidan va joylardan topilgan uy ro'zg'or buyumlaridagi musiqa cholg'ularining va ijrochilarning tasvirlari aks ettirilgan suratlar va boshqa ma'lumotlarga tayanib, musiqa ilmining juda qadim tarixga ega ekanligini guvohi bo'lamiz. Masalan: "Avesto" asari 3000 yillik tarixga ega bo'lgan nodir asar hisoblanadi. Albatta o'sha davrlarda ham madaniyat, san'at xususan musiqa ijrochiligi ham bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Тошпўлатова И. Анъанавий дутор ижрочилиги. –Т., 2004.
2. .O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi
3. Rakhmonova, D. N. (2019). DEVELOPMENT OF MUSIC CULTURE FOR ELEMENTARY SCHOOL PUPILS WITH USING INTERACTIVE SOFTWARE. *Theoretical & Applied Science*, (12), 101-106.
4. Rakhmonova, D. N. (2022). MUSIC LITERACY FOR PRIMARY SCHOOL PUPILS. *Global Book Publishing Services*, 1-182
5. Abdullaeva, M., & Gafurova, S. (2020). Challenges, experience and efficiency of distance education system introduced in Uzbekistan's State Conservatory during pandemic. *Eurasian music science journal*, (2), 93-110.
6. Rakhmonova, D. N. (2019). THE IMPORTANCE OF TEACHING MUSIC AT SCHOOL. In *СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ* (pp. 271-273).
7. Kasimxodjaeva, S. (2019). At The Origins Of Musicology In Uzbekistan: At The Origins Of Musicology In Uzbekistan. *Eurasian music science journal*, (1), 68-83.
8. Odilov, B., & Karimov, N. Archaeological Research is an Important Source in the Study of Traditional Economic Activities of the Uzbek People (On the Example of Some Researchers of the Twentieth Century).
9. Rakhmonova, D. N. (2019). THE IMPORTANCE OF TEACHING MUSIC AT SCHOOL. In *СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ* (pp. 271-273).
10. Rakhmonova, D. N. (2022). MUSIC LITERACY FOR PRIMARY SCHOOL PUPILS. *Global Book Publishing Services*, 1-182.

11. Khudoyberdiyevich, D. A., & Rakhmonqulovich, K. N. (2020). An incomparable book of a great scholar. *Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research*, (6 (8)), 63-71.
12. Karimov, N. (2020). A True Successor of Great Central Asian Scholars. *Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research*, (9), 62-69.
13. Ziyamukhamedov, J. (2022). PU Sungling's Creative Legacy as a Classic Example of Medieval Chinese Literature. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(1).
14. Odilov, B., & Karimov, N. Archaeological Research is an Important Source in the Study of Traditional Economic Activities of the Uzbek People (On the Example of Some Researchers of the Twentieth Century).